



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MUSIQIY QOBILIYATLARUNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti (PhD)

nurmatova.iroda0000@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079166>

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy qobiliyatlaruni rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanish, musiqiy ta'limiga yangicha yondashuvlar, bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda eng samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quv jarayonida AKTni amaliyotga joriy etish haqida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqiy qobiliyat, tasavvur, ijodkorlik, musiqiy idrok, innovatsiya, texnologiya.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rangbarangdir. Rivojlanishning hozirgi bosqichida maktabgacha ta'lim jarayonida o'zgarishlar ro'y bermoqda: ta'lim mazmuni tobora murakkablashmoqda, maktabgacha ta'limda asosiy e'tiborini tarbiyachilarning bolalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga, hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirishga qaratilmoqda. An'anaviy usullar bolaning kognitiv rivojlanishiga qaratilgan faol o'qitish va tarbiyalash usullari bilan almashtirildi. Bunda tarbiyachilar maktabgacha tarbiya bola rivojlanishining turli xil integratsiyaviy yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarning keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa rahbarining faoliyati yangicha mazmun bilan to'ldirilmoqda – mustaqil, ijodiy mehnatda faol, izlanuvchan shaxsni tarbiyalashdir. Musiqiy ta'limga yangicha yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishida eng samarali zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Musiqa bolalarni badiiy, axloqiy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Musiqaning insonga ta'sir qilish kuchi shubhasizdir. Musiqani idrok etish orqali bola atrofdagi dunyoni chuqurroq anglaydi, tushunadi va his qiladi. Musiqa bolaning hayotiga quvonch olib keladi, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi. Bolalar musiqa tinglashadi, unga qarab harakat qilishadi, raqsga tushishadi, o'ynashadi va qo'shiq aytishadi. Musiqa bolalarning alohida quvonch manbai bo'lib, musiqa mashg'ulotlarida turli xil pedagogik usullardan foydalanish, bolalarda musiqiy tarbiyalashning eng muhim vazifasini: musiqiylikning etakchi tarkibiy qismini – musiqaga hissiy sezgirlikni rivojlantirishni hal qiladi.



Musıqa ta’limiga yangicha yondashuvlar bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirishda mutlaqo boshqacha, eng samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Musiqani idrok etish jarayonini yanada yorqin qiziqarli bo’lishi uchun o’qitishning innovatsion usullardan va shakllaridan foydalanish juda muhim.

Innovatsiya – (lotincha "innovatsiya" yangilik, o'zgartirish, yangilash) tizimni bir holatdan o'zgartirishga olib keladigan, amalga oshirish muhitiga yangi elementlarni kiritadigan maqsadli o'zgarishlar bilan yangi narsalarni yaratish, o'zlashtirish, foydalanish va tarqatish faoliyati sifatida talqin etiladi. Ta’lim innovatsiyalari deyilganda ko’z oldimizga albatta yangi pedagogik texnologiyalar gavdalanadi. Pedagog ta’lim jarayonini innovatsiyalashda texnologiyani qo’llashni nazarda tutadi. Innovatsiya yangilik kiritish bo’lsa, texnologiya – mahorat, san’at sifatida gavdalanib, innovatsion texnologiyalar yuzaga keladi. Innovatsion texnologiyalarning har bir turi bolalarda faqatgina yangi bilim hosil qilishga xizmat qilibgina qolmasdan, balki ularda har tomonlama rivojlanish xizmat qila oladi. Ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuv pedagogik usullar, uslublar, o’quv vositalarini takomillashtirish jarayonlarini anglatadi.

O’quv faoliyatida AKTdan doimiy foydalanish bolalar bog’chasida musıqa mashg’ulotining qiziqarli bo’lishini ta’minlaydi. Bayram ertaliklar va musıqa kechalarda, o’yin-kulgi soatlarda AKTdan foydalanish juda qulay. O’quv jarayonida AKTdan foydalanish, birinchi navbatda, ta’lim jarayonida qo’shimcha ma’lumotlarini beradi; ikkinchidan, bu statik va dinamik (slydlar, animatsiyalar, videomateriallar) turli xil tasviriy materiallarni visual qabul qilishga yordam beradi; mashg’ulot samaradorligini oshiradi; maktabgacha yoshdagi bolaning musiqaga qiziqishini, motivatsiyasini oshirishda kuchli vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish, mashg’ulotga turli illyustrativ materiallar, rang-barang o’quv taqdimotlari va videoroliklarni kiritish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari shaxsga yo’naltirilgan yondashuv asosida qo’llaniladi va o’rganilayotgan material hajmini to’liq anglash imkonini beradi. O’quv jarayonida multimedia dasturlari yordamida bolalarni musiqiy savodxonligini shakllantirishda, asosiy musiqiy janrlar (qo’shiq, raqs, marsh - kichik guruhlarda, opera, balet - katta guruhlarda), "yakkaxon", "duet", "trio", "ansambl", "bastakor", "ijrochi", "dirijyor" tushunchalarini tanishtirishda qo’llash mumkin.

Musıqa bilan ishlashga imkon beruvchi turli xil kompyuter dasturlaridan: Music Maker, Mp3Cut Pro va boshqa musıqa muharrirlari foydalanish: ovoz qo’shish, tempni o’zgartirish, effektlarni qo’llash, mp3 faylni kattalashtirish yoki kichraytirish



bolalar uchun musiqiy asarlarni yanada qiziqarli qiladi, musiqiy faoliyatning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Musiqa mashg'ulotlarida videokliplar va fotosuratlar ko'rsatish; Power Point dasturi yordamida taqdimotlarini yaratish, yangi mavzuni yoritishga imkon beradi. Mashg'ulotda “Musiqiy topishmoqlar”, “Tingla va top”, “Musiqiy viktorina” va boshqa interaktiv musiqiy-didaktik o'yinlarni kiritish mumkin. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishida innovatsion kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini sifat jihatidan yaxshilashga yordam beradi.

Musiqa mashg'ulotlarida qiziqarli, g'ayrioddiy, hayratlanarli, kutilmagan elementlarni o'z ichiga olgan, maktabgacha yoshdagi bolalarda qiziqish uyg'otadigan va ijobiy hissiy muhitni yaratishga hissa qo'shadigan materialni tanlash kerak. Shu maqsadda yana bir texnologiyani “Kvest o'yin” larni amaliyotga joriy etish mumkin. Ta'lim kvesti - bu o'yinga asoslangan pedagogik texnologiya. Kvest ingliz tilidan tarjima qilingan – qidiruv degani. QUEST formatidagi ta'lim faoliyati pedagoglar va bolalar hayotini qiziqarli va o'ziga xos tarzda tashkil qilish imkoniyatini beradi. Kvest - bu qiyinchiliklarni engish va muammolarni hal qilish orqali ma'lum bir maqsad sari sayohat. Eng muhimi, kvestlar bolalarni, ota-onalarni va tarbiyachilarni faollashtirishga yordam beradi. Bu bir vaqtning o'zida ishtirokchilarning aql-zakovati, ularning jismoniy qobiliyatlari, tasavvurlari va ijodkorligidan foydalanadigan o'yin. Ishtirokchilar birgalikda harakat qilishni, bir-birlari bilan muzokaralar olib borishni, mas'uliyatli bo'lish, rollarni taqsimlashni, bir-birlari haqida qayg'urishni va yordam berishni o'rganadilar. Kvest texnologiyasidan foydalangan holda ishni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

tarbiyaviy - har bir bolani faol ijodiy jarayonga jalb qilish;

rivojlanish - maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishini, ijodkorligini, tasavvurini, qidiruv faolligini, yangilikka intilishni rivojlantirish;

tarbiyaviy - bag'rikenglik va ish uchun shaxsiy mas'uliyatni tarbiyalash.

Kvest o'yin faoliyatini tashkil etish shundan iboratki, bitta vazifani bajargandan so'ng, bolalar keyingi vazifani bajarish uchun maslahat oladilar, bu esa o'z navbatida bolalar faolligini oshirishning ehg samarali vositasidir. Kvest o'yinlari bolani ta'limda g'alabaga erishishda qiziqishini orttiradi va unda kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatiga ega. Bolani tezkorlikda harakat qilishga, chaqqonlik, topqirlik, topshiriqlarni aniq, tez vaqtda bajarishga o'rgatadi, unda qoidalarga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi. Bolaning faolligi rivojlantirilib, bilimga bo'lgan ishtiyoqi oshadi. Bola shaxsining ahloqiy sifatlari shakllanishiga yordam beradi. Bolalarda o'zaro hamkorlik, ijodkorlik, bir-biriga qayg'urish va o'zaro hurmat kabi odatlar



rivojlantiriladi. Ayniqsa, ularda tashqi dunyoni tasavvur etish, erkin fikr yuritish, emotsional faollik va o‘zaro muloqotga kirishuvchanlik vujudga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash kerakki, musiqa ta'limiga innovatsion yondashuvlar o'qitish va tarbiyaning klassik usullari bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolaning musiqiy rivojlanishiga zamonaviy texnologiyalarni kiritish zaruriyati bilan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy tarbiyalashning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv jarayonini optimallashtirish, uni barcha ishtirokchilar uchun yanada ta'limli qiziqarli, sifatli va qulay qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Toxtasinovna, N. I. (2024). HOLIDAY BREAKFAST AND FUN HOURS IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION CONTENTS OF ORGANIZATION. *International journal of artificial intelligence*, 4(03), 377-379.
2. Nurmatova, I., Tillaboeva, S., Vaxobova, G., Mamatobilova, A., & Sh, A. (2021). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF INCREASING THE EXPORT POWER OF THE REGION. *Экономика и социум*, (3-1 (82)), 215-217.
3. Nurmatova, I., & Akhmedova, M. (2023). TECHNOLOGIES FOR STABILIZING THE SPIRITUAL ENVIRONMENT OF SOCIETY. *Publishing House “Baltija Publishing”*.
4. Nurmatova, I. (2022). The role of ethical normalization in the formation of the spiritual environment of society. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 81-85.
5. Axmedova, M. T., Umarova, M. X., & Nurmatova, I. T. (2022). TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOIIY QADRIYATLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(5), 226-231.
6. Nurmatova, I. (2022). The role of ethical normalization in the formation of the spiritual environment of society. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 81-85.
7. Nurmatova, I. (2022). Social Technologies of Ethical Normalization at a New Stage of Development. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(6), 18-21.
8. Toxtasinovna, N. I. (2024). Musiqa Tinglash Faoliyati Asosida Katta Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Ijodiy Tasavvurini Rivojlantirish. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(2), 155-158.
9. Toxtasinovna, N. I. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQALI SAHNALASHTIRISH ASOSIDAGI FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(2), 16-22.